



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI  
JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI**

**2 - TOM, 2 - SON. 2026**

**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

**UDK: 614.2:616.31:338.46**

**STOMATOLOGIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY  
MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**



**Quramboyev Farruxbek Akbar o'g'li**

**Urganch RANCH texnologiya universiteti Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi**

**e-mail: [quramboyevfarrux0507@gmail.com](mailto:quramboyevfarrux0507@gmail.com)**

**<https://orcid.org/0009-0009-0325-2709>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda stomatologiya xizmatlari bozorining hozirgi holati, davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, moliyalashtirish manbalari hamda stomatologiya tashkilotlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Mazkur soha faoliyatidagi asosiy muammolar aniqlangan va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar taklif etilgan. Maqolada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish stomatologiya xizmatlari sifatini oshirishga, raqobatni kuchaytirishga va aholi uchun stomatologik yordamning ommabopligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** stomatologiya xizmatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, sog'liqni saqlash xizmatlari bozori, sog'liqni saqlash tizimi, xususiy sektor, samaradorlik.

**Kirish:** So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimlarini modernizatsiya qilish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va sohaga bozor mexanizmlarini joriy etish global miqyosdagi muhim masalalarga aylandi. Xususan, stomatologiya xizmatlari aholi salomatligi, ish qobiliyati va hayot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tibbiy yordamning eng muhim turlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra [1], og'iz bo'shlig'i kasalliklari dunyo aholisining katta qismiga ta'sir ko'rsatadi va stomatologik xizmatlar tizimining to'g'ri tashkiliy-iqtisodiy tuzilishi ularni samarali davolash va profilaktika qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi kunda stomatologiya xizmatlari bozori ham davlat, ham xususiy sektor ishtirokida shakllanmoqda hamda raqobat muhiti, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy uskunalar va xizmat ko'rsatish standartlarining joriy etilishi bilan xarakterlanadi. Biroq, ushbu sohada resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar narxini shakllantirish, investitsiyalarni jalb qilish va aholining barcha qatlamlari uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tahlillariga ko'ra [2], tibbiy xizmatlar sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish tarmoq samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish, xususiy tibbiyotni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini keng joriy etish va tibbiy xizmatlar bozorini liberallashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning amaldagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini baholash hamda ularni zamonaviy bozor talablari va xalqaro tajriba asosida



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI**  
**JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI**  
**2 - TOM, 2 - SON. 2026**  
**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Ushbu nuqtayi nazardan, stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soha samaradorligini oshirishga, xizmatlar sifatini yaxshilashga va aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada stomatologiya xizmatlari sohasidagi mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi:** Zamonaviy sharoitda sog'liqni saqlash faoliyatini va uning alohida xizmat turlarini optimallashtirish ko'p jihatdan tashkil etish va boshqaruv darajasiga bog'liqdir. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar MDH davlatlari olimlari, jumladan, V.I. Starodubov [3], O.P. Shepin [4], V.K. Ovcharov [5], V.K. Leontev [6] va V.S. Luchkevich [7] tomonidan olib borilgan. Shuningdek, buni rivojlangan xorijiy mamlakatlar olimlaridan R. Biggadayk [8], M.R. Gold [9], M. Malek [10], G.K. Braun, S. Sharma, M.M. Braun va S. Garretl [11] kabilarning ilmiy tadqiqot ishlarida ham kuzatish mumkin.

O'zbekistonlik olimlardan A.X. Tursunov [12], Sh.A. Mustafaqulov [13], D.B. Rahimov [14], N.M. Yo'ldoshev [15] va M.X. Abdurahmonovlar stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etganlar. Yuqorida qayd etilgan mualliflar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rganishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilsa-da, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, tibbiy xizmatlar bozori, moliyalashtirish va sifatni boshqarish bilan bog'liq dolzarb masalalarning yetarlicha yoritilmaganligi tanlangan maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ushbu ilmiy maqolani yozish jarayonida amalga oshirilgan tadqiqotda ilmiy mushohada, mavhum-mantiqiy fikrlash, intervyu hamda statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar:** Stomatologiya xizmatlari sog'liqni saqlash tizimining nisbatan jadal rivojlanayotgan bo'limlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu soha davlat va xususiy tibbiyot muassasalari, yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari hamda korporativ klinikalar faoliyati orqali shakllanmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, stomatologiya xizmatlarida xususiy sektor yuqori ulushga ega bo'lib, bu raqobat muhitining shakllanishiga va xizmat turlarining diversifikatsiyalashuviga olib kelmoqda. Shu bilan birga, soha faoliyatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yetarlicha muvofiqlashtirilmaganligi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, xizmatlar narxini shakllantirishda yagona yondashuvning mavjud emasligi, davlat tomonidan tartibga solish va bozor mexanizmlari o'rtasidagi nomutanosiblik, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi hamda xizmatlar sifatini baholash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlandi.

Tashkiliy jihatdan qaraganda, stomatologiya xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasalarni boshqarish tizimida strategik rejalashtirish, marketing, kadrlar salohiyati va xizmat ko'rsatish standartlari o'rtasida yetarli darajadagi o'zaro bog'liqlik mavjud emas. Ayrim hollarda ushbu muassasalar faoliyati qisqa muddatli foyda olishga yo'naltirilgan bo'lib, xizmat ko'rsatish sifati va aholi ehtiyojlari ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda stomatologiya xizmatlarini boshqarishda sifat menejmenti tizimlari, raqamli texnologiyalar va sug'urta mexanizmlaridan keng foydalaniladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga muvofiq, stomatologik yordamni tashkil etishda kasalliklarning oldini olish (profilaktika), erta tashxis qo'yish va aholining stomatologiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.



# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 2 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Iqtisodiy tahlil natijalari stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishda moliyalashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ko'p hollarda xizmatlar aholining shaxsiy mablag'lari hisobidan ko'rsatilmogda, sug'urta mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi esa kam ta'minlangan qatlamlarning xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklamoqda. Bundan tashqari, investitsiyalarni jalb qilish uchun aniq iqtisodiy rag'batlar va kafolatlarning mavjud emasligi, shuningdek, soliq va kredit imtiyozlarining cheklanganligi xususiy stomatologiya muassasalarining uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tahlillariga ko'ra, tibbiy xizmatlar sohasida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki sohaga investitsiyalar kiritilishini ham rag'batlantiradi.

1-jadval

## Stomatologiya xizmatlarini rivojlantirish mexanizmlarining qiyosiy tahlili<sup>1</sup>

| №   | Tahlil yo'nalishi                  | Amaldagi mexanizm                                                               | Takomillashtirilgan mexanizm                                                                                       |
|-----|------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | <b>Tashkiliy boshqaruv</b>         | Muassasalar faoliyati asosan avtonom, strategik muvofiqlashtirish yetarli emas. | Strategik rejalashtirish, tarmoqlararo muvofiqlashtirish va natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv joriy etiladi. |
| 2.  | <b>Davlatning roli</b>             | Asosan nazorat va litsenziyalash bilan cheklangan.                              | Reyting tizimi, standartlashtirish, rag'batlantirish va sheriklik orqali faol ishtirok etish.                      |
| 3.  | <b>Xususiy sektor ishtiroki</b>    | Asosan nazorat va litsenziyalash bilan cheklangan.                              | Soliq, kredit va investitsiyaviy rag'batlar orqali institutsional qo'llab-quvvatlash.                              |
| 4.  | <b>Moliyalashtirish manbalari</b>  | Aholining shaxsiy mablag'lari ustuvor.                                          | DXSH, investitsiyalar va grantlarni diversifikatsiya qilish.                                                       |
| 5.  | <b>Narx shakllanishi</b>           | Erkin, nazoratsiz, hududlar kesimida katta farq mavjud.                         | Ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar uchun tartibga solinadigan, shaffof tarif siyosati.                              |
| 6.  | <b>Xizmat sifati nazorati</b>      | Parchalangan (fragmentar), yagona baholash mezonlari mavjud emas.               | KPI, klinik standartlar va sifat auditi tizimi joriy etiladi.                                                      |
| 7.  | <b>Innovatsiya va texnologiya</b>  | Tashabbuskor subyektlarga bog'liq.                                              | Davlat ko'magida raqamlashtirish va innovatsiyalarni keng joriy etish.                                             |
| 8.  | <b>Kadrlar siyosati</b>            | Malaka oshirish tizimi cheklangan.                                              | Uzluksiz kasbiy rivojlanish, motivatsiya va natijadorlikka asoslangan rag'batlantirish.                            |
| 9.  | <b>Jamoatchilik uchun ochiqlik</b> | Ma'lumotlar shaffofligi past.                                                   | Narx, sifat va xizmat turlari bo'yicha ochiq axborot platformalari.                                                |
| 10. | <b>Ijtimoiy yo'naltirilganlik</b>  | Kam ta'minlangan qatlamlar uchun imkoniyatlar cheklangan.                       | Ijtimoiy stomatologiya, subsidiyalar va sug'urta orqali keng qamrovni ta'minlash.                                  |

Solishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning amaldagi mexanizmida tashkiliy va iqtisodiy elementlar o'rtasida yetarli darajada mutanosiblik mavjud emas. Davlat, xususiy sektor va bozor institutlari integratsiyasiga asoslangan

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 2 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

takomillashtirilgan mexanizm xizmatlar sifatini oshirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda aholi uchun stomatologiya xizmatlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Ushbu qiyosiy jadval bo'yicha kengaytirilgan tahliliy sharhni taqdim etamiz:

**1. Tashkiliy boshqaruv mexanizmi:** Amaldagi tizimda stomatologiya muassasalari, ayniqsa, xususiy sektor subyektlari mustaqil va parchalangan holda faoliyat yuritmoqda. Strategik rejalashtirish, hududiy muvofiqlashtirish va sohani rivojlantirish maqsadlari bilan uyg'unlik yetarli darajada ta'minlanmagan. Bu esa xizmatlarning takrorlanishiga, hududlararo nomutanosiblikka va resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi. Takomillashtirilgan mexanizmda stomatologiya xizmatlari natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv, strategik rejalashtirish va tarmoqlararo muvofiqlashtirish orqali yagona tizim sifatida rivojlantiriladi.

**2. Davlatning roli:** Amaliyotda davlatning ishtiroki asosan litsenziyalash, tekshirish va nazorat funksiyalari bilan cheklangan. Biroq, bu sohani rivojlantirish uchun faol rag'batlantiruvchi omil sifatida yetarli emas. Takomillashtirilgan modelda davlat shunchaki tartibga soluvchi emas, balki hamkor va tashabbuskor sifatida ishtirok etadi. Standartlashtirish, reyting tizimlari, sifat monitoringi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali davlat soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**3. Xususiy sektor ishtiroki:** Amaldagi mexanizmda xususiy stomatologiya muassasalari bozor qonuniyatlari asosida, ko'pincha davlat ko'magisiz faoliyat ko'rsatadi. Bu investitsiya xavfini oshiradi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini cheklaydi. Takomillashtirilgan mexanizm xususiy sektor uchun institutsional muhit yaratishni nazarda tutadi: soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va investitsiya kafolatlari orqali xususiy tashabbuslar rag'batlantiriladi.

**4. Moliyalashtirish manbalari:** Hozirgi holatda stomatologiya xizmatlari asosan aholining shaxsiy mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu esa xizmatlardan foydalanish darajasini ijtimoiy tengsizlik asosida shakllantiradi. Takomillashtirilgan mexanizm moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishni ko'zda tutadi: tibbiy sug'urta, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalar va grantlar orqali barqaror moliyaviy baza shakllantiriladi.

**5. Narx siyosati:** Amaldagi mexanizmda narxlar erkin shakllanadi, bu esa hududlar va muassasalar o'rtasida katta farqlarga olib keladi. Bu shaffoflikning pastligi va ijtimoiy norozilik xavfini oshiradi. Takomillashtirilgan mexanizmda ijtimoiy ahamiyatga ega stomatologiya xizmatlari uchun tartibga solinadigan va shaffof tarif siyosati joriy etiladi, bozor xizmatlari esa raqobat asosida rivojlanadi.

**6. Xizmatlar sifati nazorati:** Hozirgi vaziyatda sifat nazorati tarqoq bo'lib, yagona baholash mezonlari yoki KPI tizimi mavjud emas. Takomillashtirilgan mexanizm klinik protokollar, sifat ko'rsatkichlari hamda tashqi va ichki audit tizimlari orqali xizmatlar sifatini tizimli nazorat qilishni ta'minlaydi.

**7. Innovatsiyalar va texnologiyalar:** Amaldagi mexanizmda innovatsiyalarni joriy etish ayrim faol muassasalar bilan cheklangan. Takomillashtirilgan mexanizm raqamli stomatologiya, elektron navbat tizimlari, teletibbiyot elementlari va zamonaviy uskunalarni joriy etish davlat ko'magida tizimli ravishda amalga oshiriladi.

**8. Kadrlar siyosati:** Hozirgi sharoitda stomatologlarning malakasini oshirish tizimi uzluksiz emas, motivatsiya mexanizmlari esa kuchsizdir. Takomillashtirilgan mexanizm uzluksiz kasbiy rivojlanish, natijadorlikka asoslangan rag'batlantirish va kadrlar sifatini oshirishni nazarda tutadi.

**9. Axborot ochiqqligi va shaffoflik:** Amaldagi mexanizmda aholi uchun xizmatlar narxi, sifati va natijalari haqidagi ma'lumotlar cheklangan. Takomillashtirilgan mexanizm ochiq axborot platformalari orqali jamoatchilik nazorati va ishonchini mustahkamlaydi.

**10. Ijtimoiy yo'naltirilganlik:** Amaldagi mexanizm kam ta'minlangan qatlamlar uchun stomatologiya xizmatlaridan foydalanishni cheklaydi. Takomillashtirilgan mexanizm ijtimoiy



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI**  
**JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI**  
**2 - TOM, 2 - SON. 2026**  
**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

stomatologiya, subsidiyalar va sug'urta vositalari orqali xizmatlarning keng qamrovliligini ta'minlaydi.

Kengaytirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning amaldagi mexanizmi parchalangan bo'lib, qisqa muddatli iqtisodiy foydaga yo'naltirilgan. Takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm davlat, xususiy sektor va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirib, soha barqarorligini, xizmatlar sifatini va aholi salomatligini ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuvni shakllantiradi.

**Xulosalar va tavsiyalar:** Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sog'liqni saqlash tizimida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tahlillar mavjud mexanizmlarning parchalanganligini, tashkiliy va iqtisodiy elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yetarli emasligini ko'rsatdi. Xususan, davlat tomonidan tartibga solish, moliyalashtirish manbalari, narx siyosati, sifat nazorati va innovatsiyalarni joriy etish o'rtasida tizimli muvofiqlashtirish yetishmaydi.

Stomatologiya xizmatlari bozorida xususiy sektorning yuqori ulushi raqobat muhitini mustahkamlashga xizmat qilsa-da, bu jarayon davlat siyosati bilan uyg'unlashmagan holda kechmoqda. Natijada hududlar kesimida xizmat sifati va narxlarida sezilarli farqlar yuzaga kelib, aholining ayrim qatlamlari uchun stomatologik yordam imkoniyatlari cheklanmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish soha samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va aholi salomatligini mustahkamlashning asosiy shartidir. Shu nuqtayi nazardan, davlat, xususiy sektor va bozor institutlari hamkorligiga asoslangan kompleks mexanizmni joriy etish zarurati mavjud.

Olingan ilmiy xulosalar asosida stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

**1. Tashkiliy boshqaruvni takomillashtirish:** Stomatologiya xizmatlarini boshqarishda strategik rejalashtirish va natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda sohani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va ularning ijrosini monitoring qilishni talab etadi.

**2. Davlatning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish:** Davlatning sohadagi ishtiroki nafaqat tartibga soluvchi, balki rag'batlantiruvchi subyekti sifatida ham ta'minlanishi lozim. Bunga standartlashtirish, reyting tizimlari, sifat ko'rsatkichlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish orqali erishish mumkin.

**3. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish:** Stomatologiya xizmatlarini moliyalashtirishda aholining shaxsiy mablag'lariga bo'lgan yuqori bog'liqlikni kamaytirish zarur. Shu maqsadda tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish, DXSH orqali investitsiyalarni jalb qilish va ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar uchun subsidiyalash mexanizmlarini joriy etish taklif etiladi.

**4. Narx siyosati shaffofligini ta'minlash:** Ijtimoiy muhim stomatologiya xizmatlari uchun tartibga solinadigan va shaffof tarif siyosati ishlab chiqilishi lozim. Bu aholining barcha qatlamlari uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

**5. Xizmatlar sifati nazoratini kuchaytirish:** Stomatologiya xizmatlari sifatini baholashning yagona tizimini joriy etish, klinik protokollar, KPI va sifat auditori mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bu xizmat unumdorligini oshirish va iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga olib keladi.

**6. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish:** Raqamli stomatologiya, elektron navbat tizimlari, ma'lumotlar bazasi va teletibbiyot elementlarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bu jarayon davlat tomonidan institutsional va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

**7. Kadrlar salohiyatini oshirish:** Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishni yo'lga qo'yish va natijadorlikka asoslangan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish soha barqaror rivojlanishining muhim shartidir.



# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 2 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

**8. Ijtimoiy yo'naltirilgan stomatologiyani rivojlantirish:** Kam ta'minlangan qatlamlar, bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun stomatologiya xizmatlarini kengaytirish bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, stomatologiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini har tomonlama takomillashtirish sog'liqni saqlash tizimida barqaror rivojlanishni ta'minlashga, xizmatlar sifatini oshirishga va aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sohadagi mavjud muammolarni hal etish va zamonaviy, raqobatbardosh stomatologiya xizmatlari tizimini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/oralhealth>
2. OECD Health Statistics 2025 Definitions, Sources and Methods
3. Стародубов В.И. Концепция реформы управления и финансирования здравоохранения Российской Федерации // В.И. Стародубов, Р.М. Зелькович, Л.Е. Исакова // Экономика здравоохранения. 1996. - №10-11. - С.10-34.
4. Щепин О.П. Региональное здравоохранение России: пути реформирования и развития // Проблемы социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины. 1999. - №1. - С.3-12.
5. Овчаров В. К. Региональные особенности развития и структурных перемен в здравоохранении // Проблемы соц. гигиены и история медицины. -1996. №4.-С. 39-41.
6. Леонтьев В.К. Экономические проблемы стоматологии // Экономика здравоохранения.-1998.-№2.-С. 24-34.
7. Лучкевич В.С. Основы социальной медицины и управления здравоохранением. Санкт-Петербург, 1997. - 350 с.
8. Biggadike R. Entering New Markets: Strategies and Performans // MA: Mareting Science Institute.- 1977. P. 12-20.
9. Gold M.R. Cost-effectiveness in health and medicine. / M.R. Gold, J.E. Siegel, L.B. Russel, M.C. Weinstein. New York: Oxford University Press; 1996.-230 p.
10. Malek M. Health economics of heart failure. // Heart 1999; 82 (suppl IV): IV11-IV13.
11. Brown GC; Sharma S; Brown MM; Garretl S. Evidence-based medicine and cost-effectiveness. // J.Health Care Finance. 1999. - 26(2). -P. 14-23.
12. Турсунов А.Х. Соғлиқни сақлаш хизматларини ривожлантиришнинг иқтисодий механизмлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2018. – 180 б.
13. Мустафакулов Ш.А. Бозор иқтисодиёти шароитида тиббий хизматлар бошқаруви самарадорлиги // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2019. – №3. – Б. 45–52.
14. Раҳимов Д.Б. Хусусий тиббий хизматлар соҳасида инвестиция меҳанчиликлари // Иқтисодий тадқиқотлар ахборотномаси. – 2021. – №4. – Б. 60–68.
15. Юлдашев Н.М. Ўзбекистонда тиббий хизматлар бозорини ривожлантириш масалалари // Жамоат саломатлиги журнали. – 2020. – №1. – Б. 33–41.
16. Абдурахмонов М.Х. Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш ва хизматлар сифати бошқаруви. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2017. – 200 б.